

ISSN 2181-1342

 Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/3 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alihanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich – siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich – siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Юсупов Хуршид Муратжанович
ПЕРВЫЕ ШАГИ ДВУХСТОРОННЕГО СОТРУДНИЧЕСТВА САУДОВСКОЙ АРАВИИ
С МОМЕНТА НЕЗАВИСИМОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 9-13

Najmiddinov Zafar Xoshimjonovich
O'RTA OSIYO FAQIHLARINING MUSANNIFAK ASARLARIGA TA'SIRI XUSUSIDA 14-19

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Madraimova Marxamat Raximberganovna
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN
TARTIBGA SOLISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI VA AHAMIYATI 20-23

Abdullaev Jamshid Obidovich
SUN'YIY INTELLEKT — XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH
VOSITASI SIFATIDA 24-30

Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич
ДОННИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА МАҲСУЛОТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ
ХАРАЖАТЛАРИ ҲИСОБИНИ ЮРИТИШ ВА ТАННАРХ КАЛКУЛЯЦИЯСИНИ
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 31-46

Ziyadullayev Zuxriddin Ilxom o'g'li
TIJORAT BANKLARI TRANSFORMATSIYASI BORASIDA
NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLAR 47-51

Alimova Saboxat Gaziyevna, Erkinova Sevinch
YASHIL IQTISODIYOT VA ATROF MUHIT MUAMMOLARI 52-56

Zokirova Gavxar
GLOBAL PENSIYA TIZIMLARI BARQARORLIGI VA YETARLILIGI TAHLILI 57-66

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna, Muxtorov Muxsin Jabborovich
TASAVVUFDA INSON MA'NAVIY KAMOLOTI MASALASI 67-73

O'rindo'yev Davlatjon Bahtiyorovich
IJTIMOIY FALSAFADA STRATEGEMALARING O'RNI VA AHAMIYATI 74-79

Alimov Mansur Narboyevich
PEDAGOGLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY VA KASBIY RIVOJLANTIRISHDA AJDODLAR
MA'NAVIY MEROSINING O'RNI. ("SILSILAT UL-ORIFIYN VA TAZKIRATU-S-SIDDIQIYN"
ASARI MISOLIDA) 80-87

To'xtasinov Shukurjon Shavkatjon o'g'li
MILLIY BIRLIK VA SIYOSIY HOKIMIYATGA DOIR JADIDLAR QARASHLARINING IJTIMOIY-
FALSAFIY AHAMIYATI 88-95

Nurmatova Umida Jalolidinovna
AN'ANAVIY O'QISHNING GNSEOLOGIK JIHATLARI 96-101

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Abdullaeva Charos Baxramovna</i>	ZAMONAVIY LINGVISTIKADA REKLAMA DISKURSI TUSHUNCHASI	102-105
<i>Umarqulova Munira Zohidjon qizi</i>	ILMIY-FANTASTIK ADABIYOT: JANRNING SHAKLLANISHI, RIVOJLANISHI VA POETIK CHEGARALARI	106-119
<i>Xaydarova Gavhar Abdukadirovna</i>	ZAMONAVIY LINGVISTIK MADANIYAT KONTEKSTIDA "SPORT DISKURSI" TUSHUNCHASINING NAMOYON BO'LISHI	120-124
<i>Mirzarahimov Bahodir Shavkat o'g'li</i>	"XALQ SO'ZI" GAZETASINING MATNLARINI DAVR BO'YICHA TASNIFFLASH BOSQICHLARI	125-129
<i>Boboqulova Nilufar Xayrullo qizi</i>	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SHOULDER/YELKA, ELBOW/TIRSAK HAMDA WRIST/BILAK SOMATIK KOMPONENTLI MAQOLLARNING KONSEPTUAL TAHLILI	130-137
<i>Yangiboyeva Feruza Ortiq qizi</i>	TIPS FOR TEACHING ENGLISH: STRATEGIES FOR EFFECTIVE LANGUAGE LEARNING	138-145
<i>Ибодуллаева Гавхар Уринбаевна</i>	ОБУЧЕНИЕ ШКОЛЬНИКОВ К НАЧАЛЬНОМУ УРОВНЮ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В СРЕДНЕ- ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЕ	146-151
<i>Kuvvatov Rakhatulla Hikmatillayevich</i>	SAN'ATGA OID AFORIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI.....	152-156
<i>Ibodullayeva Gulshod Urinovna</i>	CHET TILLARINI O'RGANISHDA IMMERSIV O'QITISH USLUBLARI –SAMARALI YO'NALISH, YONDASHUVLAR VA XULOSALAR.....	157-160
<i>Habibullayeva Gulsanam Inomjon qizi</i>	INNOVATIVE METHODS OF TEACHING READING (FOR PRE INTERMEDIATE LEVELS)	161-165
<i>Berdimurotova Sevara Maxmudovna</i>	TILSHUNOSLIKDA TERMINOLOGIYANING XUSUSIYATLARI.....	166-169

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Kuchimova Shaxlo</i>	VASIYATNOMANING OG'ZAKI SHAKLI VA UNI TUZISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	170-176
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	KONTRAFAKT MAHSULOTLARNI ANIQLASH VA ULARNING MUOMALASIGA QARSHI KURASHISH MUAMMOLARI	177-183
<i>Курбанова Эльмира Асадовна</i>	ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ОВД С ГОСУДАРСТВЕННЫМИ И ИНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ ПО ПРОФИЛАКТИКЕ БЕЗНАДЗОРНОСТИ И ПРАВОНАРУШЕНИЙ СРЕДИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	184-190

<i>Raxmatullayev Xurshidjon Shukurilla o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA KRIPTO-AKTIV VA U BILAN BOG'LIQ BO'LGAN AYRIM MUAMMOLAR.....	191-195
<i>Aldamuratova Amangul Uralbayevna</i>	
FUQAROLIK PROTSESSIDA AJRIMLAR TUSHUNCHASI VA TURLARI	196-200
<i>Xakimov Jahongir Olimjon o'g'li</i>	
KIBERFIRIBGARLIK VA KIBERKORRUPSIYA – RAQAMLI DUNYODAGI MURAKKAB JINOYATLAR.....	201-208
<i>Ergashev Qaxramon Zokirjonovich</i>	
KORRUPSIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHNING IJTIMOIY ZARURATI.....	209-219
<i>Normatov Isomiddin Dustqul o'g'li</i>	
XUFİYONA İQTİSODİYOTGA QARSHI KURASHISH TİZİMİNİ TAKOMILLASHTIRİSHNING USTUVOR YO'NALİSHLARI.....	220-224
<i>Пулатов Темурбек Гайратжон угли</i>	
ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ KYC В СЕКТОРЕ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	225-231

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA	232-236
<i>Sharipova Farida Salimjanovna, Qo'ng'irotova Anorxol</i>	
TIBBIYOT OLIGOHLARIDA "TIBBIY BIOLOGIYA" HAMDA "UMUMIY GENETIKA" FANLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR SAMARADORLIGI	237-241
<i>Собирова Гулибарно Зайнитдин кизи</i>	
МЕТОДИКА ИНТЕРАКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	242-252
<i>Salayev Donyor Baxtiyarovich</i>	
ZAMONAVIY JISMONIY TAYYORGARLIKNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	253-259
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASASIDA BOKS MURABBIYLARINI KASBGA YO'NALTIRISH TIZIMINING XUSUSIYATLARI	260-266
<i>Hakimova Nargiza Uralovna</i>	
YOSH KURASHCHI QIZLARDA MUVOZANAT QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQS VA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH TEKNOLOGIYASI	267-273
<i>Otepbergenov Jetkerbay Sakbergenovich</i>	
MODULLI TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHGA UNDASH MUAMMOSI	274-279

Received: 10 April 2025

Accepted: 15 April 2025

Published: 28 April 2025

Article / Original Paper

AN'ANAVIY O'QISHNING GNOSEOLOGIK JIHATLARI

Nurmatova Umida Jalolidinovna

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti

Milliy g'oya va falsafa kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada, mutolaa jarayoni uning falsafiy-gnoseologik mazmun-mohiyati hamda mutolaa jarayonida bilish qobiliyati natijasida o'zini, o'zligini anglashi gnoseologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, matnni tushunish, tahlil qilish, mohiyatini anglash va ma'nosini ayтиб berish, umumlashtirish mutolaa matnni tushunishga qaratilgan murakkab kognitiv jarayon ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: mutolaa, mutolaa jarayoni, kitob mutolaasi, axborot madaniyati, mutolaa texnologiyasi, matnni tushunish, mutolaa gnoseologiyasi, mutolaa tarzi.

EPISTEOLOGICAL ASPECTS OF TRADITIONAL READING

Nurmatova Umida Jalolidinovna

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Associate Professor, Department of

National Idea and Philosophy

Abstract. This scientific article analyzes the reading process from an epistemological point of view, its philosophical and epistemological content and essence, and the self-awareness of the individual as a result of the ability to know during the reading process. It is also argued that reading is a complex cognitive process aimed at understanding the text, analyzing it, understanding its essence, and expressing its meaning.

Key words: reading, reading process, book reading, information culture, reading technology, text comprehension, reading epistemology, reading style.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V5SI3Y2025N12>

Kirish

Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan bugun kitob targ'iboti davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylandi. Shu ma'noda, davlat rahbari farmoyishi barchamizni kitobga munosabatimizni qayta ko'rib chiqishga undaydi. Shunday ekan, kitob mutolaasining falsafiy-gnoseologik muammolarini bugungi voqelik nuqtai nazardan tahlil qilish metodologik ahamiyatga ega.

Bugun kitob hayotning mutlaqo zaruriy atributidir, agar kitob bo'lmasa insonda na tarix, na madaniyat, na ertangi kun to'g'risida g'oyalalar mavjud bo'lgan bo'lar edi. Kitoblarni o'qish, idrok etishning barcha boshqa jarayonlaridan deyarli ko'proq, fikr va xayolotni rivojlantiradi, bu esa shaxsning rivojlanishi uchun juda muhimdir. Shifokorlarning ta'kidlashicha, inson miyasining normal ishlashi uchun har bir inson har kuni 20-25 betlik badiiy matnni o'qishi kerak. Har kunlik mutolaa miya hayoti mavjudligining sharoitidir.

Mutolaajarayoni — insonning ongli faoliyatida shakllanadi, insonning immanent (bilish, anglash, idrok qilish) xususiyatlari bilan o'zaro aloqadorlikda, sodir bo'ladi. Mutolaaga inson atrofidagi obyektiv va subyektiv vogelikning ham bevosita ta'siri bo'ladi. Inson o'zining ongli faoliyati bilan o'zini-o'zi takomillashtirish maqsadida kitob mutolaasi bilan mashg'ul bo'ladi. Inson mutolaajarayonida o'zini takomillashtirib boradi va natijada o'zining faoliyati, boshqalarning faoliyatiga baho beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mutolaajarayoni uning falsafiy-gnoseologik mohiyati, xususiyatlari hamda dialektik birligini makon va zamon nuqtai nazardan ko'pgina manbalarda tahlil qilgan. Deni Didro, Gadamer, Adler Mortimer, Doren Charlz Van, Yelnikov M.P va boshqalarning asarlarida mutolaaning gnoseologik jihatlari o'rganilgan. Inson qanchalik ko'p kitob o'qigani sayin uning dunyoqarashi kengayib, ongi o'sadi, tafakkuri shakllanadi. Masalan, faylasuf Deni Didroning "Odamlar kitob o'qimay qo'ysalar fikrlashdan to'xtaydilar", degan so'zlarini eslash o'rini. Ko'pchilik, inson kitob o'qimasdan ham fikrlay oladi-ku deyishadi. To'g'ri inson kundalik bilish, tafakkur doirasida fikrlaydi, ammo nazariy-ilmiy darajada fikrlay olmaydi. Kitob mutolaq qilish tafakkurni boyitadi, falsafiy dunyoqarashini shakllantiradi, so'z boyligini oshirib vogelikni erkin ifodalay olish ko'nikmasini hosil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy va xronologik, semantik va pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Kitob mutolaasining falsafiy-gnoseologik mohiyatiga ko'ra ikki jihat mavjud: *birinchidan*, u insonning axborot ehtiyojini qondirishga qaratilgan intellektual faoliyat turi; *ikkinchidan*, falsafiy gnoseologik mohiyatga ega bo'lib, insonda strategik hayotiy maqsadni, idealni shakllantirish funksiyasini bajaradi.

Birinchisida axborot madaniyati – mutolaajadaniyatining asosiy belgilaridan biri. Axborot, o'z-o'zini tashkillashtirishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. "Axborot ma'naviy o'z-o'zini tashkillashtirishning muhim tarkibiy qismidir. Xotira, faoliyat dasturi, o'z-o'zini tashkillashtirish jarayoni, muloqot va boshqa murakkab bioijtimoiy hodisalar axborotsiz amalga oshmaydi" [1.73]. Ikkinchisida, falsafiy gnoseologik mohiyatiga ko'ra kitob – insonni fikrlashga undaydi, yuksak darajaga erishishiga, ma'naviy kamolotiga yordam beradi.

Kitob mutolaasi – bu kitobxonning ilm olish yoki estetik zavqlanish maqsadida o'zi tanlab olgan biror mavzudagi kitobni o'qish jarayonidir. Kitob mutolaajilish jarayonida diqqatni jamlab, o'qishga butun borlig'i bilan berilish lozim, tinglashni esa ikkinchi darajaga qo'yish kerak bo'ladi. Sababi tinglash mavjud bo'lgan o'qituvchidan o'rganish bo'lsa, o'qish mavjud bo'lman o'qituvchidan o'rganishdir. Masalan, "Agar o'qituvchiga savol bersangiz, u sizga, odatda, javob qaytaradi. Agar u aytgan javob sizni o'ylantirsa, bosh qotirib o'tirmasdan undan nimani nazarda tutganini so'rashingiz mumkin. Biroq agar kitobga savol beradigan bo'lsangiz, unga o'zingiz javob berishga majbursiz. Shu jihatdan kitob xuddi tabiat yoki olam kabitdir. Agar uni so'roqqa tutsangiz, u fikrlash va tahlil qila olish darajangizga qarab sizga javob qaytaradi" [2.24]. Shu bois, kitob o'qiganda ham ong, tafakkurni boyitadigan, ruhiyatimiz, o'z olamimiz, qalbimiz bilan til topishadigan kitoblarni diqqat bilan mutolaajilish lozim.

Fransuz yozuvchisi Gyustav Flober qanday kitoblarni o'qish to'g'risida shunday deydi: "Qanday kitob o'qish kerakligi bilan qiziqayapsizmi? Montenni o'qing. O'qiganda ham

shoshmasdan, ohista o'qing! Qalbingiz buyuk donolar fikri bilan to'yigan zakiylik muhitidan bahra olsin. Shu bois men sizga dastlab Montenni o'qishishingizni maslahat beraman. Uni boshidan oxirigacha o'qib tugatgandan keyin, yana qayta mutolaa qilishga kirishing”[3.270]. Zero, “Har doim kitob nafaqat bilimlarni saqlovchi va tarjimon sifatida, balki atrofdagi olamni bilish vositasi sifatida ham qabul qilingan”[4.53]. Demak, kitob insonni, borliqni bilishida, buyuk mutafakkirlarning ma'naviy merosini bilishda, ong-u shuurimizni oziqlantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Biz o'zligimizni, dunyoni, olam va odam munosabatini kitob orqali bilib olamiz.

Qolaversa, kitob mutolaasi intellektual faoliyatining bir ko'rinishi hisoblanadi. Intellektual faoliyat esa falsafiy gnoseologik jihatdan kitob mutolaasini alohida ma'naviy voqelikka, fenomenga aylantiradi. Kitob mutolaasi alohida voqelik, fenomen sifatida quyidagi farqlarda namoyon bo'ladi: bunda, kitobni mutolaa qilish bilan kitob o'qish o'rtasida farq bor. Birinchisi, intensiv bo'lib chuqurlashishni yoqtiradi ya'ni, maqsadli mutolaa – bilim va mutolaaning cheksizligini tan oladi, Suqrot ta'kidlaginidek, “Bilmasligimni bildim” deydi. Ikkinchisi, ekstensiv ya'ni ommaviy hodisa sifatida kitobni ermak uchun o'qish – bunda yengil-yelpi, yuzaki bilish ustuvor. Falsafiy-gnoseologik nuqtai nazardan kitob mutolaasi cheklangan, u mudom empirik izlanishlarga ro'para keladi va o'zining cheklanganligiga iqror bo'lishga majbur. B.Rassel e'tirof etganidek, inson bilimlarining barchasi cheklangan, nisbiy va xatodir. Shunday ekan, kitob mutolaasi empirik tajriba, hayot oldida joizdir.

Inson bilimini cheklanganligi relyativizmni ulug'lashga asos bo'lolmaydi, inson idroki nimanidir bilishga intilishi, bu boradagi o'jarliklari bilan e'zozli. Kitob mutolaasidagi intellektual ehtiyojlar ana shu omillar mahsulidir[5.5]. Kitob mutolaasi insonga intensiv bilishga, o'z-o'zini takomillashtirishga, ilmiy, tafakkuriy natija beradi.

Inson bilimi qanchalik keng bo'lsa, ilmning biz bilmagan noma'lum maydoni cheksizligini anglab boradi. Anaksimenning shogirdi ustoziga shunday savol bilan murojaat qiladi: “Ustoz, mana siz buyuk ellinlardan saboq olgan, ko'p yillik hayotiy tajriba orttirib, donishmandlik maqomiga erishgan insonsiz. Lekin negadir hali ko'p narsani bilmayman, deb nolisiz. Nahotki, sizdek donishmand uchun ham yechilmagan savollar bo'lsa bu dunyoda? Faylasuf o'ylanib qoldi va tayoq olib yerga ikkita doira chizdi. Bu doiralarning biri kichkina, ikkinchisi kattaroq edi. Mana bu kichkina doira sening bilimlaring, kattasi esa meniki, — dedi Anaksimen. Ushbu doiralardan tashqaridagi maydon esa hali biz anglab yetmagan ilmlardir. Endi bir e'tibor bering-a, doira qanchalik kichik bo'lsa, undan tashqaridagi maydon ham shuncha kichik, ya'ni hali biz tushunib yetmagan ilmlar kamroqdir. Doira katta bo'lsa, buning aksi, ya'ni insonning bilim doirasi qanchalar keng bo'lsa, bu doiraga tutash noma'lumlik maydoni ham shunchalar kengdir”[6.19]. Zero, ilm – cheksiz osmonga o'xshaydi. Platonning: “Mukammal bilimning, ya'ni men egallagan bilimning birdan bir turi men o'zim bilmagan narsalarni bilishimdir”, degan qarashlari zamirida o'rganish, bilimning cheksizligini anglatuvchi haqiqat yotadi. Qancha ko'p o'qisangiz shuncha oz narsanigina bilishingizga iqror bo'laverasiz. “Ilmda qanchalar rivojlansang ham, baribir bilmagan juda ko'p narsa bo'ladi. Chunki tafakkur sohasining tashqarisida va ko'rish qudratining ustida bo'lgan juda ko'p haqiqat bordir”[7.363].

Kitob ong va qalb ehtiyojini qondiruvchi omil sifatida inson ruhini tarbiyalaydi, shaxsni shakllantiradi. Kitob odamdan mutolaada nafaqat ko'z va aql, shuningdek, ko'ngil ham birdek ishtirok etishini talab qiladi. Kitob o'qishdan maqsad aql-tafakkur bilan uni mantiqiy tahlil qilishgina emas, balki chin yurakdan zavqlanish, ta'sirlanish, o'zlikni, haqiqatni izlab topish

hamdir. Faylasuf Yan Mindan do'sti so'rabdi: "Kitob o'qigandan so'ng hech narsa yodda qolmasa nima qilmoq kerak?". U "Uni tushunmoq kerak, yodlash shart emas. Tushunmoq zaruriyat ham ikkinchi darajali narsa. Eng avvalo, kitobning asosiy mohiyatini angloamoq joiz"[8.4] — deb javob beradi.

Bizning fikrimizcha, kitobning mohiyatini anglash uchun matnni tushunish (idrok etish) lozim bu esa, mutolaaning gnoseologik samaradorligini tashkil etadi. Bu xususda professor N.Shermuxamedova shunday deydi: "Matnni tushunish tayyor natija emas, balki dialektik jarayon, turli madaniy dunyolar dialogi, "o'zining-o'zganing" (Baxtin) ma'nolari to'qnashuvi natijasi, matn, shaxs va madaniyatlar dialogi"[9.317]. Matnni tushunish germenevtik doira bo'lib, unda muallif hayoti tiklangan butunlik va "hayotiy loyiha" sifatida ustivorlikka ega.

Gadamer matn mazmunini tushsunish, anglash jarayonini "ufqlarning qo'shilishi" sifatida izohlaydi. Gadamer ufqlarning qo'shilishi haqida shunday deydi: "Matn mazmunini tushunish uchun men unga jiddiy munosabatda bo'lishim kerak. Talqin qiluvchi sifatida men matn qanday savollarga javob berishi mumkinligini tushunishim kerak. Matn o'zining mazmunli ufqida yaratilgan, men esa o'z ufqimga egaman. Matn o'z "tasavvurlari" asosida yozilgan va shular haqida so'zlaydi. Men o'z tasavvurlarimga egaman. "Yot" matnni qay darajada anglashim mumkinligi ko'p jihatdan ichki mazmunli ufq qay darajada bir-biriga yaqinlashishi va qo'shilib ketishi mumkinligiga bog'liq"[10.704]. Gadimir mavjud manbadan faqat bilim olibgina qolmay, o'zining nuqtai nazarini o'zgartirishi, o'z ufqini kengaytirishi va avvalgidan boshqacharoq tushuna boshlashi mumkinligini keltirib o'tadi.

O'qishning botiniy xususiyati tushunish, anglash hamda muallif va kitobxon, ishtirokchilar kabi barcha jarayonni bilishni taqozo etadi. Mexanik o'qish belgilarni ko'rish, matnni idrok etish orqali yuzaga keladi. Ijodiy o'qish esa, shaxsning butun olamini, ruhiyatini, tasavvurini o'z ichiga oladi. Kitobxon matnning mazmunini tushunib, anglay boshlagani sari unda kitobga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Yangi matnlarni izlab topa boshlaydi hamda matnning zohiriylarini o'zlashtirish bilan birga, uning botiniy mazmunini ham anglay boshlaydi. Shu bois, mutolaa gnoseologiyasi shaxsning kognitiv qobiliyatini rivojlantirishda, ma'naviy-ma'rifiy kamolotida muhim rol o'ynaydi.

Mutolaa murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida eng muhim kognitiv va kommunikativ vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi: tushunish (umumiyl, to'liq, tanqidiy), aniq ma'lumotlarni topish, sharplash va boshqalar.

Kitob va mutolaaning gnoseologik muammolarini anglashda mutolaa texnologiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Mutolaa texnologiyasi kitobxon tomonidan matnni o'zlashtirish usullarini anglatib, bu jarayon sifat va miqdor yo'nalishlariga ega. Kitobxon tomonidan matnning qanchalik sifatli o'zlashtirilganligi uning matn mazmunini qanchalik darajada anglaganligi hamda anglangan tushunchalarni hayotga tatbiq qila olishiga bog'liq.

Mutolaa texnologiyasi miqdor jihatdan tez va sekin o'qish jarayonida ko'rindi. Tez o'qishning mutolaa hodisasi dagi ahamiyati yuqoridir. Ma'lumotlarga ko'ra, kitob sekin o'qilganda 100 foiz matn tushunilmaydi, faqat 60 foiz anglanadi, aksincha, tez o'qilganda matnning 80 foizi tushuniladi. Xususan, biz so'rovnomada ishtirok etganlarga murojaat qilganimizda 27.2 foizi tez o'qishni, 48.5 foizi sekin o'qishini bildirishgan. Vaholanki, tez o'qish texnologiyasi samarali hisoblanadi. Insonning o'rtacha o'qish tezligi bir daqiqada 120-80 ta so'zni tashkil qiladi. Shuning uchun mutolaa jarayonida ko'rish sohasini kengaytirish, ya'ni ko'zlarni bir ikkita so'zga qaratish emas, to'liq matnni qamrab olishga harakat qilish lozim.

Buning uchun diqqatni jamlab matnning taxminiy markaziy nuqtasini belgilab, unga tikilib matnning mazmunini anglab olish kerak. Bu tez o'qish texnikasining eng samarali usuli hisoblanadi.

Shu bilan birga, mutolaa jarayonida shaxsning operativ xotirasi hamda diqqatining muhimligi shakllanadi. Texnik ko'nikmalar o'quvchiga kitob bilan chuqurroq ishlashiga va uni yaxshi eslab qolishiga yordam beradi. Shuning uchun bunday ko'nikmalar shakllantirilib borilsa, tez o'qish hamda eslab qolish qobiliyati ortib boradi. Demak, o'qishni idrok etish tezligi va darajasi har kuni oshirilib borilishi kerak.

Fikrimizcha, kitobni faol tarzda o'qish lozim. Bu maksimal tarzda tezlik bilan o'qish kerak degani emas. Mutolaa jarayonida butun matnni samarali o'zlashtirib olish mumkin bo'lgan tarzda o'qish kerak. Hamda o'qib chiqilgan matnni anglash uchun tanaffuslar qilish kerak. Faol o'qish jarayoni matnni substansional mohiyatini eslab qolishga va tushunishga qaratilishi zarur. Muhimi qanchalik ko'p kitob o'qish emas, balki qanchalik anglab tushunish, olingan bilimlarni amalda qo'llash muhimdir.

Xulosa va takliflar

Hozirgi vaqtda axborot – kommunikatsiya sohasi shiddat bilan rivojlanmoqda, televiedenie, radio, internet, kompyuter, mobil telefon kundalik hayotimizdan chuqur joy olmoqda. Biz ana shu imkoniyatlardan samarali foydalanib, mamlakatimizda aholining ayniqsa yoshlarning ong-u shuurida bugunning tili bilan aytilayotgan "modernizatsiya", "innovatsiya"larning quvvat chirog'i – kitob va uni o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosalarga kelamiz:

birinchidan, kitob mutolaa qilish jarayonining o'zidayoq insonning ongi va dunyoqarashi shakllanib boradi. Bu intensiv o'qish jarayoniga bog'liq bo'lib, anglash, fikrlash, voqelikni umumlashtirish xislatini shakllantiradi;

ikkinchidan, kitob mutolaa qilish insonning dunyoqarashini boyitib ijodiy faoliyatga yo'naltiradi, olamni bilish orqali o'z-o'zini anglash natijasida keng qamrovli ijodiy fikrlab dunyo va undagi hodisalarga, voqelikka yangicha nuqtai nazar bilan qaray boshlaydi;

uchinchidan, bilim cheksiz, tubi yo'q bir dengizdir. Bizning ishimiz o'qish va o'qish, imkonimiz boricha ko'proq bilimga ega bo'lish uchun intilishdir;

to'rtinchidan, axborot texnologiyalarining rivojlanib borishi elektron mutolaaning shakllanishiga olib keldi. Ammo, an'anaviy mutolaa shakli samarali bo'lib, mazmuniga chuqurroq kirib borish, tushunish va baholay olish ko'nikmasining shakllanishiga olib keladi. Bu esa, mutolaaning falsafiy-gnoseologik mohiyatini ochib beradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

- Абдуллаева М.Н ва бошқалар. Синергетиканинг табиий – илмий ва фалсафий муаммолари. Наманган, 2009. 73-бет.
- Adler Mortimer, Doren Charlz Van. Kitoblar qanday o'qiladi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. 24-bet.
- Жўраева С. Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф. –Тошкент: "Янги аср авлоди", 2017. 270-бет.
- Ельников М.П. Феномен книги. (Теоретико-гносеологический аспект) // Книга: Исследования и материалы. – М., 1995. – Сборник71. – С. 53.

5. Алимасов В. Китоб мutoалаасининг фалсафий-гносеологик ва информацион моҳияти. “Ёшларда китобхонлик тафаккурини шакллантиришда ижтимоий-гуманитар фанларнинг ўрни ва долзарбилиги”. Халқаро илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. – Қарши, 2021. 5-бет.
6. Жўраева С. Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф. -Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2017. 19-бет.
7. Усмон Нури Тўпбоши. Кўнгил боғчасидан Саодат томчилари. Истамбул: “ЭРКАМ” нашриёти, 2020/1441. 363-бет.
8. Китоб – онг ва қалб эҳтиёжи. Маърифат газетаси. 2021 –йил 27-январ, №4 (9329) 4-бет.
9. Шермуҳамедова Н.А. Фалсафа ва фан методологияси. Тошкент, 2005. 317 — бет.
10. Гуннар Скирбекк, Нилс Гилье. Фалсафа тарихи. Т.: “Шарқ” нашриёти, 2002. 704 — бет.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/3 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari"** elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).